



BUG‘ROXON YODGORLIGI SOPOL IDISHLARIDAGI RASMLAR

Tolibaev Murat Erjanbaevich,
QMU “Arxeologiya” kafedrasi assistenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19607289>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hunarmandchilik buyumlaridagi bezaklar tabiat hodisalari to‘g‘risida ramzlarning unutilgan jihatlarini oradan qancha vaqt o‘tganiga qaramay, nisbiy bo‘lsa-da, o‘zida saqlab qoluvchi xususiyatga ega ekanligi, hamda bu shakl va semantik tasvirlar o‘zida shu qadar ko‘p axborotni jamlaganliklari, ularni ma‘no va mazmun jihatidan tavsiflash va tasvirlash muhim ahamiyat kasb etishi so‘z etiladilar. Qolaversa, hunarmandchilik buyumlarida tasvirlangan rasmlar shunchaki shakl bo‘lib qolmasdan, balki muhim arxeologik va etnografik manbalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik, bezak, muhim arxeologik va etnografik manbalar, Xovand, Madminiya, Xorazm arxeologiya va etnografik ekspeditsiyasi, Bug‘roxon port shahari, rasmlari sopol idish, kemasozlik.

Annotation. This article discusses how the decorations on handicraft items retain forgotten aspects of symbols about natural phenomena, regardless of how much time has passed, albeit relatively, and how these form and semantic images contain so much information that describing and depicting them in terms of meaning and content is of great importance. Moreover, the images depicted on handicrafts are not just a form, but also an important archaeological and ethnographic source.

Keywords: crafts, ornamentation, important archaeological and ethnographic sources, Khavand, Madminiya, Khorezm archaeological and ethnographic expedition, the port city of Bugrakhan, painted pottery, shipbuilding.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov yozganidek, “... hali hanuz o‘zining ko‘rk-u tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o‘lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi” [1., B-13] Hunarmandchilik buyumlaridagi bezak va kashtalar tabiat hodisalari to‘g‘risida ramzlarning unutilgan jihatlarini oradan qancha vaqt o‘tganiga qaramay, nisbiy bo‘lsa-da, o‘zida saqlab qoluvchi xususiyatga ega bo‘ladi. Bu shakl va semantik tasvirlar o‘zida shu qadar ko‘p axborotni jamlaydiki, ularni ma‘no va mazmun jihatidan tavsiflash va tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, hunarmandchilik buyumlarida tasvirlangan rasmlar shunchaki shakl bo‘lib qolmasdan, balki muhim arxeologik va etnografik manbalardan hisoblanadi. 1998-yildan hozirgi kungacha Qoraqalpoq davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Qo‘ng‘irot tumanidan 15 km. shimoli-g‘arbda, Amudaryoning o‘rta asrlarga tegishli oqimi bo‘ylab, eski Qorako‘l kanalining o‘ng qirg‘og‘ida, deltada joylashgan o‘rta asrlar shahar posyolkasining qoldiqlari bo‘lgan Bug‘roxon yodgorligi hududida arxeologik qazishmalar olib borilmoqda.

Bug‘roxon shahar xarobasi yoki Xovand XIX asr xronikalarida Hakim ota Baqirg‘oniy maqbarasi bilan Qo‘ng‘irot o‘rtasidagi shahar xarobalari sifatida tez-tez



qayd qilingan. Munis-Ogahiy fikrlariga qaraganda shahar xarobasining haqiqiy nomi – Xovand deb atalgan, lekin u Bug‘roxon nomi bilan mashhur bo‘lgan

Bug‘roxon yodgorligi haqida o‘rta asrlarga tegishli arab geografik yozma manbalarda Al-Istaxriy, al-Makdisiy va anonim asar «Xudud ul-olam» asarlarida Madminiya (Madkaminiya yoki Badminiya) deb nomlangan. Shuningdek, Bug‘roxon yodgorligini Ya.G.Gulyamov X asrdagi Madminiya bilan bog‘laydi [2, b-151-154]

Shahar katta tekstlikda Machanko‘li nomli ko‘lgan yaqin yerga joylashgan, shuning uchun ham uni ko‘l toshqini sodir bo‘lganida tez-tez suv bosib turgan.

Bug‘roxon shahari xarobasidan 200-250 m. janubi-g‘arbida janubdan shimolga qarab daryo shahobchasining yarim qurigan o‘zani cho‘zilib yotadi. Mahalliy aholi uni «Qorako‘l» deb ataydi va Amudaryoning ilgari o‘zani deb hisoblaydi. Uzoq o‘tmishda shu daryoda Bug‘roxon port shahari bo‘lgan, daryo borgan sari g‘arb tomon og‘aboshlagan va Puljoy shahrini bosib ketish xavfini tug‘dirgan va o‘z yerlarini sun‘iy marza bilan o‘rab olishga qaror qilib, marzaga «Oq qochi» nomi berilgan. Haqiqatdan ham Bug‘roxondan 3,5-4 km g‘arbda tuproqdan qilingan marza izlari janubdan shimolga qarab yo‘nalgan. Marzaning balandligi 1,5 m, eni 4 metrga yaqin [2, b-158]

Ushbu yodgorlik o‘rni S.P.Tolstov raxbarligida XX asrning 50-60-yillarida Xorazm arxeologiya va etnografik ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan va 1946-yil arxeologik xaritaga tushirilgan. Unda yodgorlikdagi yer ustki qatlamidagi arxeologik materiallar yig‘ilib, umumiy xulosa chiqarilgan edi. 1959-yili Xorazm ekspeditsiyasining Qoraqalpoq etnografik guruhi tomonidan tadqiqod qilinadi [4, b.27]

Arxeologik yodgorlik N. Dawqaraev nomidagi Tarix, til va adabiyot instituti tomonidan V.N.Yagodin raxbarligida 1963-yil ko‘rib chiqilgan [8, b.22.]

Shuningdek, t.f.n., dotsent. M.Turebekov rahbarligida 1998-2003 yillarda Bug‘roxon arxeologik yodgorligida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari ushbu xududdagi arxeologik yodgorliklar haqidagi ma‘lumotlarni ilmiy jihatdan yanada boyitishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi [4, 19]

Tadqiqotlar davomida yodgorlik hududidan ko‘plab sopol buyumlar va ularning parchalari topilgan. Eng qiziqarli topilmalardan biri 2000 yil Bug‘roxon yodgorligidagi minora atrofidan XIII-XIV asr madaniy qatlamidagi sopol idishdir. Kosa balanligi 4,3 sm, tagining aylanasi 9 sm va devor qalinligi 0,8 sm.

Uning o‘ziga xosligi shundaki, u bugungi kunda Bug‘roxon yodgorligidan topilgan eng ahamiyatli sopol idishlardan biri. Bo‘laklardan yelimgan, disksimon botiq taglik ustidagi konussimon kosa. Ichki qismi oq angovli, shaffof rangsiz sirlangan. Idishning ichki markaziy qismida to‘q jigarrangli sir osti rasm mavjud. Bizning nazarimizda ushbu rasmda dengiz va daryoda suzishga muljallangan yelkanli va eshkakli kemani tasvirlangan. Odamlar foydalangan dastlabki suv transporti qayiq hisoblanadi. Qayiq tasvirlari uchun umumiy jihat xalqlarning suv obyektlari - dengiz, ko‘l, daryolarning qirg‘oqbo‘yi hududlarida joylashuvidir. Qayiq daryo, ko‘l va suv havzalari uchun mo‘ljallangan suzish vositasi bo‘lib, ular dastlab, eshkaklar bilan



harakatlantirilgan, keyinchalik yelkanli qayiqalar paydo bo‘lgan. Qayiqning shakli va o‘lchamlari, nechta (bir, ikki va ko‘p) eshkakli ekanligi uning nima maqsadga mo‘ljallanganligiga bog‘liq. Ushbu suv transportidan yuk va yo‘lovchilarni tashish, baliq ovlashda, harbiy ishda, suvda sayr qilish va boshqalar maqsadlarda foydalaniladi. Qayiqalar ilgari, yo‘g‘on daraxt tanasini o‘yib yasalgan, qayin po‘stlog‘idan yoki yog‘och sinch (karkas)larga hayvon terisini tortib qurilgan. Qadimda suzib yuruvchi vosita sifatida xodalar va suvda suzadigan boshqa narsalardan foydalanishgan. Xodalarni bir-biriga bog‘lab qurilgan solni dastlabki kema deb hisoblash mumkin. Qadimiy Misr, O‘rta Osiyo, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda qayiq va kemalar yaratilgan [7, b.575-576] Misrda dastlab qamish va papirusdan yasalgan sol ishlatilgan. Ossuriyada hayvon terisidan tayyorlangan qopga havo puflab suvdan suzib o‘tishda foydalanishgan. Shimoliy mamlakatlarda qayin po‘stlog‘idan qurilgan, daraxt tanasini o‘yib yasalgan yoki karkasga hayvon terisi tortilgan (chelnok) qayiqalardan foydalanishgan. Misrda qadimdan ko‘p eshkakli dengiz kemasi rasm bo‘lgan. Bora-bora kemasozlik takomillashib, kemaning o‘lchamlari va yuk ko‘taruvchanligi ortib bordi, unga eshkak va yelkanlar o‘rnatildi (masalan X. Kolomb «Santa Mariya» yelkanli kemasi — karavellada Amerikani ochgan, 1492-yil) [6, b.540-541]

O‘zbekistonda ham qadimdan kemalardan foydalanilgan, Amudaryo va Orol dengizida yuklar va yo‘lovchilarni tashuvchi asosan, yelkanli kemalar bo‘lgan.

Vazifasiga ko‘ra, kemalar transport, ovchilik, ma‘muriy xizmat, harbiy, ishlarini bajaruvchi, kemalarga xizmat ko‘rsatuvchi turlarga bo‘linadi.

Transport kemasida yuk, yo‘lovchilar tashiladi;

Ovchilik kemasida baliq ovlanadi;

Ma‘muriy xizmat ko‘rsatuvchi kemalar shatakka oluvchi, suzib yuruvchi mayoq va boshqalarga bo‘linadi [6, b.540-541]

Suzib yurish hududi va usuli bo‘yicha kemalar dengizda, daryo va ko‘llarda suzib yuradigan turlarga bulinadi. Dengizda suzish kemaning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Harakat tezligi, suzish uzoqligi, puxtaligi, sig‘imi, yo‘lovchilar va yuklar tashish quvvati foydalanish-texnik ko‘rsatkichlari xisoblanadi.

Ayniqsa, hozirgi davrda sayyohlik kemalarining qulayligini oshirishga katta e‘tibor berilib, kema sayyohligi taraqqiyotiga yo‘l ochib berilmoqda.

Ehtimol, Orol bo‘ylab dengizchilik aynan shunday kemalarda amalga oshirilgan va aynan Amudaryo kemachiligining ta‘siri ostida bo‘lgan. Keling, ushbu da‘voni tushuntirishga va ushbu turdagi kemaga xronologik va madaniy jihatdan yaqin bo‘lgan o‘xshash tasvirlarni topishga harakat qilamiz.

Ko‘rinib turibdiki, izlashni Janubiy Orolbo‘yini o‘rab turgan aholi faol aloqada bo‘lgan mintaqalarning dengizchilik an‘analari - musulmon (arab, fors) va rus an‘analari orasidan boshlash kerak.



Ayniqsa, al-Maqdisiyda qiziqarli ma'lumotlarni uchratamiz. Xuroson viloyatlaridan xalifalik mamlakatlariga olib chiqiladigan buyumlarni tavsiflashda ularning eng uzun ro'yxati Xorazm uchun beriladi:

Birinchidan, bu bizga Xorazmdan eksport qilinadigan Xorazm hunarmandchilik sanoati mahsulotlari turlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Istaxriy va Hudud al-Olam ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm asosan agrar-chorvachilik mamlakati va shu bilan birga Sharq mamlakatlari, turklar va Volgabo'yi o'rtasidagi savdoning markazi, xususan, eng yirik bozori sifatida tasvirlangan. Al-Maqdisiyda eksport tarkibida metallga ishlov berish, ayniqsa kemasozlik sanoati buyumlari paydo bo'lganligini ko'ramiz [3., 242.].

Dengizda suzishda qiyshiq yelkan ishlatilgan va kema korpusining ikkala uchida tryumlar qilingan. Daryoda suzish variyantida eshkaklar ishlatilgan. Ular bitta ustunga ega edi, rul o'rniga quyruq eshkak ishlatilgan.

Kosada tasvirlangan kemaga eng ko'p o'xshashlik drakkar va ladya kabi yelkanli kemalarda mavjud.

Drakkar - tumshug'i va quyrug'i baland ko'tarilgan vikinglarning uzun va tor, yog'och kemasi. Aynan ko'tarilgan forsheven va axtershteven sopol idishdagi qayiqqa o'xshash keladi. Biroq, mutanosiblikda u orqa va burni ko'tarilmaganligi tomonidan farqlarga ega.

Ladya (shimoliy shevalarda lo'dya), slavyan va rus dengiz va daryo kemasi. Aynan lodya so'zidan hozirgi "lodka" so'zi kelib chiqqan. Ladyada eshkak va yelkan bor edi. Bunday kemalarning yelkanli qurollari ikki-uch machtalardan iborat bo'lgan. Ularda to'g'ri yelkanlar ko'tarilgan.

Shunday qilib, bizning kemamiz ham drakkar, ham ladya bo'lishi mumkin - yaqqol tashqi o'xshashlik mavjud.

Xulosa qilib shuni qayd qilish mumkinki, Vatanimizda hunarmandchilik juda chuqur tarixiy ildizlarga borib taqalib, mahalliy aholi qadimdanoq mahalliy resurslar asosida sifatli mahsulotlar tayyorlab o'z ichki ehtiyojlarini qondira olgan. Bugungi kungacha yaratilib kelingan, xalqimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan hunarmandchilik namunalari mahalliy xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkurining chuqur qatlamlari, xo'jalik faoliyati, falsafasi, qarashlari, turmush tarzining taraqqiyot darajasi namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, XII asrda Xorazmning sharq mamlakatlari, turklar va Volgabo'yi o'rtasida intensiv aloqalar mavjud bo'lgan va ular dengiz orqali ham amalga oshirilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Sharqiy Yevropa bilan savdo-sotiqning o'sishi Xorazmda birinchi o'ringa bu savdoning tabiiy markaziga aylangan shaharni - Urganchni, Xorazm sivilizatsiyasining eng chekka shimoli-g'arbiy tayanchini, cho'l Ustyurt orqali g'arbga - Mang'ishloq pristanlariga, shimoli-g'arbga - Quyi Embaga va undan Volgaga va janubga, Qoraqum orqali Jurjonga boradigan yo'llarning tarmoqlanishining boshlanishiga olib keldi va shu tariqa Iroq va Erondan Sharqiy Yevropaga eng qisqa yo'lda joylashgan.



Adabiyotlar:

1. Ўзбекистоннинг тарихини ўқитиш ва ўрганишнинг ягона концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими, олий ва ўрта махсус таълим вазирликлари хайъатининг кўшма мажлисида 1996 йил 30-апрелда қабул қилинган). - Тошкент, 1996. - Б.13.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. Ташкент, 1957. 151-154
3. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССР. М.-Л. 1948. 242.
4. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958-1960 гг. МХЭ. Вып. 6, М., 1963. 27.
5. Туребеков М. Исследования городища Бограхан // Археологические исследования в Узбекистане 2003 год, вып. 4. Ташкент, 2004. 19.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти. 4-жилд. Т. 2002. 540-541 б.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти. 10-жилд. Т. 2002. 575-756 б.
8. Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части приаральской дельты Аму-Дарьи // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып.7, М., 1963. 22.

